



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI MTU



FAN:

ELEKTR TA'MINOTI

MAVZU
10

TASHQI TARMOQLARNING TUZULISHI
VA HISOBI



Siddikov.I.X

«Elektr ta'minoni va qayta tiklanuvchan
energiya manbalari» kafedrasi professori



TASHQI TARMOQLARNING TUZULISHI VA HISOBI

Reja:

- 1. Tashqi tarmoqlarning tuzilishi haqida umumiylumotlar**
- 2. Elektr tarmoqlarning ta'minot sxemalari**
- 3. Elektr tarmoqlarida kuchlanishning tushishi**





Elektr ta'minoni



Elektr ta'minoni

Tashqi tarmoqlarning tuzilishi haqida

umumiylumotlar

Energiya tizimi deganda generatorlar, tarqatish qurilmalari, pasaytiruvchi va kuchaytiruvchi, uzatuvchi, rostlovchi va istemolchi transformator podstansiyalari, yuqori va past kuchlanishli elektr tarmoqlari va elektr energiyasi istemolchilaridan tashkil topgan bir yaxlit tizim nazarda tutiladi (1 va 2 - rasm).





Elektr tarmoqlari deganda - elektr tizimining transformatorlar, turlicha kuchlanishdagi elektr liniyalari va ular tarkibiga kiruvchi uskunalar tushuniladi. Mohiyatiga ko'ra elektr tarmoqlari **tarqatish** va **ta'minot** liniyalariga bo'linadi.




Tarqatish tarmoqlari – deb

elektr tarmog'ining elektr
energiyasini bevosita ta'minot
manbai (TM) dan istemol
transformator podstansiyalariga (TP)
va elektr energiyasi istemolchilariga
(agar past kuchlanish liniyasi bo'lsa)
yetkazib beruvchi qismiga aytiladi.



1- rasm. Turlichay kuchlanishdagi elektr tarmoqlaridan tashkil topgan elektr tizimi. 1 - va 2 - 10 kV li; 3 - 6,0 kV li; 4 - 35 kV li; 6 - 110 kV li va 35/6 kV li transformator podstansiyasi.

2. Elektr tarmoqlarning ta'minot sxemalari



2-rasm.

Shaxobchalangan
elektr tarmog'i




Ta'minot tarmoqlari - deb

elektr energiyasini tarqatish qurilmalari va transformator punktlariga yetkazib beruvchi qismiga aytiladi.

«Elektrotexnikaning nazariy asoslari» kursidan ma'lumki, elektr energiyasini uzoq masofalarga yetkazib berishda uning kuchlanishini oshirish kerak.

Hozirgi zamон elektr tarmoqlari tarkibiga elektr energiyasining kuchlanishni oshiruvchi transformator podstansiyalari kiritiladi. Elektr energiyasini iste'mol qiluvchi iste'molchilar yaqinida esa kuchlanishni iste'molchi talab etgan darajagacha pasaytiruvchi transformatorlar joylashtriladi.



3 - rasm. Elektr
ta'minot
tarmog'i.



Kuchlanishi 110 kV li transformator podstansiyasining ochiq tarqatish qurilmasi
(OTQ)
Электроснабжение



Kuchlanishi 500 kV li ochiq tarqatish qurilmasi (OTQ)


Электроснабжение




Kuchlanishi 750 kV li ochiq tarqatish qurilmasi (OTQ)
Электроснабжение



Kuchlanishi 10 kV
li yopiq (seksiya
tipli) tarqatish
qurilmasi (YoTQ)



Tarqatish qurilmasi (TQ)
ning bir sekiyali elektr
ulanish sxemasi




Tarqatish qurilmasi (TQ) ning ikki seksiyali elektr ulanish sxemasi

Elektr energiyasining kuchlanishini oshirish va tushurish zaruriyati oxir-oqibatda uch fazali o'zgaruvchan tokdan kengroq foydalanishga olib keldi. Shu sababli elektr energiyasini uzoq masofalarga uzatishda, isrofini kamaytirish uchun kuchlanishni yanada yuqori darajalarga ko'tarib uzatish shundan dalolat beradi.

Rasmda unchalik katta bo'Imagan uchta tuman elektr stansiyalaridan tashkil topgan energiya tizimining elektr sxemasi tasvirlangan (4 – rasm).

*Markaziy elektr
ta'minot manbai*



Elektr ta'minoni

**4 - rasm. Kichik
uchta elektr
stansiyadan tashkil
topgan tizimining
sxemasi**



- Elektr stansiyasidagi generatorning kuchlanishi 10 kV ni tashkil etadi. 10 kV kuchlanishni eng uzoq masofada joylashgan elektr stansiyasigacha yetkazib berish uchun 220 kV gacha, unchalik uzoqda bo'limgan elektr stansiyagacha yetkazib berishda 110 kV gacha oshirish, energiya halqasiga ulanish uchun esa 110 kV ga oshirish kerak.



- Bundan tashqari energiya tizimi boshqacha kuchlanishdagi tarmoqlarga ham ulanishi mumkin. Shuning uchun kuchlanishi 110 kV dan 35 kV yoki 6 kV li tizimning liniyasiga ulanishda 110/35 kV li, 35/10 kV li yoki 110/10 kV, 35/6 kV li pasaytirish podstansiyasiga ega bo‘lish talab etiladi (5-rasm).

- Pasaytiruvchi transformator podstansiyasidan 10 yoki 6 kV li elektr taqatish liniyalari iste'molchilarga tomon tortiladi. Kuchlanishi 10/0,38 kV li transformator punktlarida iste'molchilarning ishchi kuchlanishi 380 V ga teng.

Belgilanishga qarab elektr energiyasi transformatorlarda transformatsiyalanadi (kuchlanish oshiriladi, tok esa kamaytriladi yoki buning teskarisi bo'lishi mumkin, masalan, 10/0,38 kV - kuchlanshni pasaytiruvchi (10 kV ni 0,38 kV ga) yoki 10/35 – kuchlanishni oshiruvchi (10 kV ni 35 kV ga). Elektr energiyasi iste'molchiga yetib borguncha bir necha marta shu tartibda transformatsiyalanadi. Buning uchun esa bir nechta transformator podstansiyalari kerak bo'ladi.




5-rasm. Kuchlanishi 35/10 kV li podstansiyaning umumiyl ko'rinishi
Elektr ta'minoni

Markazlashgan tarmoqdan uzoqda joylashgan
ayrim tumanlarda kichik gidroelektrostansiyalar,
quyosh fotoelektrik qurilmalari kabi induvidual
elektr ta'minot manbalari joriy etilgan (4-rasm).

Ushbu avtonom tarmoqlarda kuchlanishi 380 V (0,4 kV) bo'lgan elektr eneriyasi manbai o'rnatilib undan olingan elektr energiyasi kuchlanishni oshirish transformator (0,4/10 kV) yordamida o'zgartiriladi va elektr ta'minot hududidagi kichik quvvatli iste'molchilar pasaytiruvchi transformatorlar orqali energiya bilan ta'minlanadi. Kuchlanishning qiymati – har qanday elektr uskunadagi elementning shu jumladan elektr tarmog'inining xususiyatini belgilovchi muhim ko'rsatkich hisoblandi.

Nominal kuchlanish deb, elektr energiyasi iste'molchilar, transformatorlar, generatorlardagi normal va uzoq muddatli iqtisodiy samarali ishlashga aytiladi. Ushbu kuchlanish barcha elektr qurilmalar va mashinalarning pasport ko'rsatkichida qayd etiladi.



6 - rasm.
Shaxobchalangan
istemolchi elektr
tarmoqlar sxemasi.




Tarqatish qurilmasi (TQ) ning elektr ulanishi
Elektr ta'minoni

Uch fazali tokda ishlovchi elektr uskunalarda nominal kuchlanish qilib fazalar-aro kuchlanishning qiymati qabul qilingan.³ Budan tashqari masalan liniyadagi nominal kuchlanish 35 kV bo'lsa, uning faza kuchlanishi marta kichkina bo'lib 20,2 kV ni tashkil etadi. Elektr tarmog'ining nominal kuchlanishi elektr iste'molchilarining nominal kuchlanishiga tenglashtirib olinadi.

Haqiqatada esa tarmoqdagi kuchlanish tarmoqning turli nuqtalarida turlicha bo'lib u, vaqt o'tishi davomida o'zgarib turadi. Liniyaning boshlang'ich qismida kuchlanish nominalga nisbatan yuqori bo'lsa uning oxirgi nuqtalarda nominaldan past bo'ladi.

7 - rasmda liniyadagi yuklamaning taqsimlanishi ko'rsatilgan. Rasmning tahliliga ko'ra liniyaning boshlang'ich nuqtasida kuchlanish nominaldan 5% yuqori bo'lsa, oxirgi nuqtada nominaldan 5% ga pastga tushgan.



7- rasm. Liniyaning
 turli nuqtalaridagi
 kuchlanishning
 nominal va haqiqiy
 qiymatlari.

- Umumiy holatda liniyaning boshi va oxirgi nuqtalaridagi kuchlanishning o'rta arifmetik qiymatlari nominal kuchlanish darajasiga teng bo'lishi kerak yoki quyidagi misolda keltirlgandek:

$$\frac{U_1 + U_2}{2} = \frac{400 + 360}{2} = 380V = U_n$$

- Generatorlardagi nominal kuchlanish elektr tarmog'iga nisbatan 5% ga ortiq qabul qilinadi.
- Ushbu holat elektr tarmog'ining oxirgi nuqtasida joylashgan elektr iste'molchilarni ham nominal kuchlanish bilan ta'minlash kriteriyasiga asoslangan.

Transformatorning birlamchi chulg'amidagi nominal kuchlanish tarmoqning nominal kuchlanishiga teng, chunki u, tarmoqdan elektr energiyasini iste'mol qiladi. Transformatorning ikkilamchi cho'lg'amidagi kuchlanish, unga ulangan tarmoqdan 5 ... 10 % ga yuqori bo'ladi. Buning sababi undan elektr energiyasini oluvchi iste'molchilar uchun ta'minot manbai (generator) vazifasini o'taydi. Bundan tashqari kuchlanishning oshirilishi transformatordagi kuchlanish isrofini va iste'molchilarni ta'minlovchi elektr tarmog'idagi kuchlanish isrofini ham kompensatsiyalaydi.

- 8 - rasmda butun uzunligi bo'yicha yuklamasi taqsimlangan, kuchlanishni oshiruvchi va pasaytiruvchi transformator bilan jihozlangan elektr tarmog'i tasvirlangan. 2 va 3 nuqtalardagi tarmoqning kuchlanishi transformator vositasida 10% ga oshiriladi va yangisidan elektr tarmog'iga nisbatan kuchlanishning 5 % ga ortishiga erishiladi. Ayonki 1-2 bo'limdagi tarmoqning nominal kuchlanishi 10 kV bo'lib 3-4 bo'limlardagi kuchlanish 380 V ga teng.

Barcha elektr qurilmalar 1000 V gacha (past) va 1000 V dan yuqori (yuqori) kuchlanishlilarga ajratiladi. Kelgusida shartli ravishda kuchlanishi 380 V li tarmoqlarni past, 1 kV dan yuqorilarni, yuqori kuchlanishli deb ataymiz.


- Elektr ta'minotida qulaylik yaratish, elektr tarmoqlar ekspluatatsiyasida samaradorlikka erishish va elektr uskuna va qurilmalarni ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini chuqur ixtisoslashtirishga erishish, tarmoqlardagi metal va mehnat sarfini kamaytirish maqsadida chastotasi 50 Gts li turlicha sanoat chastotalari joriy etilgan. Standart kuchlanishlar haqidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

- Aholi turar joylari va past kuchlanishli tarmoqlarda 380 V kuchlanishli to'rt sim o'tkazgichli tarmoqlar joriy etilgan. Ushbu tarmoqning sxemasi 9 – rasmda tasvirlangan. Odatda elektr xavfsizlikni ta'minlash va kutilmagan buzulishlarning oldini olish maqsadida, tarmoqning nol o'tkazgich simi transformator punktining yaqinida, tarmoqning ma'lum bir qismidagi nuqtalarda va oxiridagi nuqtada yerlashtirish tizimiga ulanadi.


Elektr tarmog‘idagi izolyatsiyaning buzulishi oqibatida elektr toki ta’siriga tushib qolib havf tug‘diruvchi barcha uskunalarining metal qobiqlari ishonchli qilib nol o’tkazgich simiga ulanadi. Nol o’tkazgichli liniyaga o‘chirish, ajratish qurilmalari, eruvchan saqlagichlarni o‘rnatish taqiqlanadi. Xonalari quruq bo‘lgan binolardagi bir fazali yoritish elektr tarmoqlariga ushbu qoida amal qilmaydi.

Past kuchlanishli elektrtarmoqlaridagi faza kuchlanishi (faza simi va nol orasidagi) 220 V ga teng. Maboda uch fazali tarmoqdagi biror bir fazaning o'tkazgich simi nol o'tkazgich simiga qo'shilib qolsa, nol simi yerga tutashtirilganligi sababli qisqa tutashuv hodisasi yuz beradi. Bunday holatda faza simi boshida o'rnatilgan avtomat o'chirgich yoki eruvchan saqlagichning ishga tushishi natijasida qisqa tutashuv hodisasiga chek qo'yiladi.

Kuchlanishi 380 V li elektr tarmoqlaridan foydalanish bo'yicha yig'ilgan ko'p yillik ulkan tajriba, kerakli darajadagi texnika xavfsizligiga rioya etilganda kuchlanigi 220 V li elektr tarmoqlariga nisbatan bir qancha qulay, xavfsiz hamda metal sarfi va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha 2 martadan ortiq afzalikka egalgini ko'rsatdi. Shu sababli suv xo'jaligi tarmoqlarining kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan aksariyat qismini kuchlanishi 380 V li tarmoqlar tashkil etadi.



8- rasm. Transformatorga ulangan tarmoqdagi kuchlanishning nominal va haqiqiy qiymatlari.



9- rasm. Kuchlanishi 380 V li, neytral nuqtasi yerlashtirilgan to'rt sim o'tkazgichli tarmoqning sxemasi.

- Past kuchlanishli, bir fazali tarmoqlarda kuchlanish 220 V ni tashkil etadi. Oxirgi yillarda ishlab chiqarilayotgan elektr uskunalar va jihozlar (kundalik ehtiyoj qurilmalari: dazmol, kompyuter, mikroto'lqinli pechlar, konditsioner va h.k., kommunal xo'jalik buyumlari – kir yuvish, mikroiqlim yaratish va h.k.) dan foydalanishda elektr xavfsizlikni oshirish maqsadida uch sim o'tkazgichli (neytral nol simiga ulanadigan) 220 V li tarmoqlardan keng miyosda foydalanilmoqda. Bunday tarmoqlardagi eng chekka elektr o'tkazgich simlar orasidagi kuchlanish $2 \times 220 = 440$ V ni, chekka va o'rtadagi o'tkazgich simlar orasidagi kuchlanish 220 V ga teng.

1- jadval. O'zgaruvchan tokdagi 50 Gts chastotali elektr qurilmalarning nominal kuchlanishlari

Elektr energiyasi iste'molchilaridagi nominal kuchlanish, V			Nominal kuchlanish					Elektr tarmoq-lar va iste'molchila r-ning nominal kuchlani-shi, kV	Nominal liniya kuchlanishi, kV			Eng katta ishchi kuchlani sh, kV	
Liniya	Faza	Bir fazali tokda	Uch fazali tok genera -torlari	Birlamchi chug'amlar	uch fazali liniya toki	Ikkilamchi chulg'am	Bir fazali	Birlamchi chug'amlar	Ikkilamchi chulg'am	Gener ator-lar	Transformatorlar		
-	-	127	-	-	-	-	127	133	3	3,15	3 va 3,15	3,15 va 3,3	3,5
220	127	220	230	220	230	220	230	230	6	6,3	6 va 6,3	6,3 va 6,6	6,9
380	220	380	400	380	400	380	-	10	10,5	10 va 10,5	10,5 va 11	11,5	
								35	-	35	35	38,5	40,5
								110	-	110	110	121	126
								220	-	220	220	242	252
								330	-	330	330	347	363
								500	-	500	500	525	525

- Aksariyat nasos stansiyalari kuchlanishi 6 ... 10 kV li tarmoqlar orqali ta'minlanadi va ular elektr energiyasini tarqatish tarmoqlari deyiladi. Kuchlanishi 6 kV li tarmoqlarda, elektr iste'molchi transformatorlar va davigatellarda elektr energiyasining isrofining yuqoriligi, va uskunalarning samaradorligi pastligi sababli ular 10 kV ga o'tkazilmoqda.

Elektr tarmoqlari va transformatorlarda eneriyasini tejash va samaradorligi oshirish maqsadida hozirgi paytda kuchlanishi: 110/10 kV, 35/10 kV, 10/0,38, 35/0,38 kV li transformatorlar bilan jihozlangan elektr tizimlar joriy etilmoqda. Bunday tarmoqlar chuqr kirish (yuqori kuchlanishli liniyalarni elektr iste'mochilar joylashgan hudud yaqinigacha kiritish) nomini olgan.

Kuchlanishi 110 kV li tarmoqlar suv xo‘jaligida keng tarqalgan. Ushbu tarmoqlar zaruratga ko‘ra kuchlanishi 110/10 kV (uch fazali ikki chulg‘amli) hamda 110/35/10 yoki 110/35/0,4 kV li (uch fazali uch chulg‘amli) transformatorlar bilan jihozlanishi mumkin.

- Uch fazali tarmoqlarda «neytral rejimi» masalasi (neytral nuqtaning yerga ulanish) masalasi kuchlanishga bog‘liq holda turlichayechim topadi. To‘rt simli kuchlanishi 380/220 V li hamda 2x220 V li tarmoqlarda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgandek, neytralo‘tkazgich simi bevosita yerga tutashtirilgan.

Buning natijasida tarmoqlarning xavfsizligi ortadi, chunki normal ish tarzida fazalar o'tkazgich simlari bilan yer orasidagi kuchlanish 220 V dan oshmaydi, fazalar simining yerga tutashish ehtimoli yuzaga kelganda qisqa tutashuv jarayoni yuzaga kelib, tarmoqning boshlang'ich qismidagi avtomat o'chirgichning ishga tushishi yoki eruvchan saqlagichning kuyishi natijasida liniya elektr manbaidan o'chiriladi.

Kuchlanishi 35 kV gacha bo'lgan elektr tarmoqlarda neytrali izolyatsiyalangan rejim joriy etilgan. Bunday tarmoqlar uch simli bo'lib, fazalar sim yerga tutashganda yerlashtirish tizimi orqali nominal kuchlanishga mos, tarmoq simining sig'imiga teng keluvchi yerlashtirish tizimiga nisbatan unchalik katta bo'lmasagan tok oqib o'tadi.



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH
MUHANDİSLARI İNSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

